

## YOZUV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH UCHUN MASHQLAR TIZIMI

**Yusupova Mashxura Xusniddin qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston  
Milliy Universitet Xorijiy filologiya fakulteti  
Fransuz filologiyasi 4-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: **D.I. Djafarova**

Fransuz filologiyasi kafedrasi mudiri, dots.

**Annotasiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lgan yozuv ko'nikmasini shakllantirish va shu bilan birga rivojlantirishni va namuna sifatida aksariyat mashqlar tizimini ochib berdik.

**Kalit so'zlar:** Mavzuga kirish, yozuv ko'nikmalari, alifbo, yozuv nutq faoliyatining turi, yozuv mezonlari.

**Annotation:** In this article, we have revealed the formation and development of writing skills, which is one of the most pressing problems today, and the system of exercises as an example.

**Keywords:** Introduction to the topic, writing skills, alphabet, type of writing and speech activity, writing criteria.

**Аннотация:** В данной статье мы раскрыли формирование и развитие навыков письма, что является одной из наиболее актуальных проблем на сегодняшний день, и на примере системы упражнений.

**Ключевые слова:** Введение в тему, навыки письма, алфавит, вид письменной и речевой деятельности, критерии письма.

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatida o'ziga xos munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashni harajati yo'qdir. Til o'rganish dunyoqarashi keng ,madaniyatli shaxslarni tarbiyalab yetkazishdir. Chet tilida nutq faoliyati turlarini o'rgatish muhim hisoblanadi.

Ular orqali malumot olinadi, malumot beriladi bu esa chet tilini o'qitishning maqsadini tashkil qiladi. Malumot olish tinglab tushinish va o'qish orqali amalga oshsa, malumot berish gapirish va fikrni yozma bayon qilish orqali amalgam oshadi. Nutq faoliyqtining turlari quyidagilar: tinglab tushinish, gapirish , o'qish va yozishdir. Men bu mavzu orqali yozuv nutq faoliyatining turi va malaka sifatida ekanligini ochib beraman. Zamonaviy chet tilini o'rgatish metodikasida „yozma nutq” va „yozuv” tushinchalari farqlanadi. Bilamizki, kommunikatsiya og'zaki va yozma nutqlardan iborat. Og'zaki nutqning komponentlari tinglab tushinish ,gapirish orqali kommunikatsiya amalga oshsa, yozma nutq orqali xam bu jarayon ro'y beradi. Yozma nutqning komponentiga o'qish va yozuv kiradi. Yozuv yozma nutqning ajralmas komponenti hisoblanadi. Yozuv nutq faoliyati hisoblanadi. U orqali malumot almashinadi. Chet tilini o'rgatishda yozuv muhim o'rin tutadi. U orqali o'ziga axborot, malumot beriladi. Yozuv tufayli

biz malumotni ko'p vaqt ,xatto asrlargacha saqlab qolamiz, kelajak avlodga beshikast yetkazib beramiz .Yozuv bo'lmasa shuncha ilmiy – tarixiy boyligimiz saqlanib qolmas edi, biz ulardan behabar qolar edik. Maktabda o'rganiladigon chet tildagi nutq faoliyati turlaridan yozuvning farqi uning o'rganishda tutgan mavqei bolib, u o'qitish maqomiga ega emas,balki ta'lim vositasi hisoblanadi.

**Yozuv ko'nikmalari:** Yozma nutq tegishli hususiy malakalarga asoslanadi. Yozuv ya'ni yozma nutq malakalari quyidagi ko'nikmalardan tashkil topadi:1. husnixat ko'nikmasi 2.imlo ko'nikmasi 3.tuzish ko'nikmasi yani yozma fikr bayon etish maqsadida gaplarni birlashtirish 4.yozuvni leksik va grammatik ko'nikmalari kabilar.Yozuv mehanizmlari ham mavjud. Mehanizm deganda o'zi yozuv nimalar orqali amalga oshishi tushiniladi.Mashhur psihologik olim N G Jinning guvohlik berishicha yozuv mehanizimi 2 bosqichdan 1) harflardan so'z yasash va 2) so'z va so'z brikmalaridan yozma axborotlar tuzishdan tashkil topadi. Har bir chet tilini o'rganayotganimizda albatta alifbodan o'rganamiz . shuning uchun ham alifbo til o'rganish uchun eng yaxshi vositadir. Ayniqsa yosh boshlang'ich sinflarga chet tilini o'rgatyganda albatta o'sha til alifbosidan boshlab o'rgatish lozim.

**Yozuv nutq faoliyatining turi:** Yozuv boshqa nutq faoliyatlarini shakillantirishda vositachilik qiladi . Yozuv orqali o'zgan fikrini yozib olamiz o'qiganimizni yozsak xotiramizda yaxshi saqlanadi, gapirish uchun ma'lumot to'playmiz , gapirishimiz oson bo'ladi . Yozuvni o'rganish orqali o'qishni ham o'rganamiz.

**Chet tili grammatikasi turli xilligi :** Nemis ispan, ingliz ,fransuz tillari tovush-xarf bog'lanishi o'quvchilar ona tilisidagidan farq qilishi xollariga duch kelamiz 1) Tovush bilan xarf miqdorining mos kelmasligi (chet tilida bir tovushga ikkita (digraph) va uch (bazan undan xam ko'p) harf to'g'ri keladi.2) Xarfning turlicha o'qilishi . Chet tildagi undosh (masalan [c] )o'rniga qarab , xar xil tovushni ifodalaydi.)3 Xarflarning bir nechasi (masalan [k] tovushini c , k, q xarflari orqali belgilanishi)4) Bazi xarflar chet tilda oqilmaydi(shartli „soqov’’ xarf deyiladi)

**Yozuv mezonlari :1)Fonetik mezon;** So'z yozilishi ifodalayotgan tovushga mos keladi.(ing.tilida pen, ispan tilida dama, olmon tilida kurz,fransuz tilida trou) **2)Morfologik mezon:** fonetik xolatiga qaramay so'zning mano ifodalovchi qismi (old qo'shimcha, o'zak sufks,)yozilishi o'zgarishsiz qoladi.( Masalan: names tilida Hand so'zida oxirgi harf t o'qilsa yozilishi o'zgarmaydi.) **3)Ananaviy mezon:** (tarixiy) fonetik va morfologik imlo qoidasiga bo'ysunmaydi,tarixan qabul qilingan tarzda yozilaveradi.( Masalan ingliz tilida door, nemis tilida ver,fransuz tilida aube)**4)Ieroglif (ieroglafiya) mezon:**aytishda bir xil (omofon) so'zlar yozilishda o'zgacha qiyofaga ega bo'ladi (ingliz tilida here-hear, nemis tilida saite-seite,fransuz tilida tant-tamps.)

**Yozuvni o'rgatuvchi mashqlar tizimi :**Mashqlar yozuv texnikasini o'rgatish va fikrni yozma bayon qilish bo'yicha bo'ladi. Ular ikki tipga bo'linadi. **1) til yoki tayyorlov va 2) nutq mashqlari** Xarflar, xarf birikmalarining, so'zlar va so'z birikmalarining to'g'ri yozilishi, so'zlardan jumlar tuzish, matn ustida ishlaganda esa uni qisqartirish, reja tuzib yozishni o'rgatadigan mashqlar qo'llanadi.Fikrni yozma bayon qilshga o'rgatadigan mashqlar nutq mashqlari xisoblanadi. Bunday mashqlarga bayon, insho va chet ellik do'stalrga xat yozishni, anotatsiya tuzishni, bir mavzuni yozma bayon qilishkabilar kiradi.Tayyorlov mashqlari eng avvalo namunalar asosida bajariladigan mashqlarni ko'chirib yozish, ularni kengaytirish yoki soddalashtirish kabilarini o'z ichiga oladi. Tayyorlov mashqlarini yana bir turi axborotni o'z so'zlari bilan xikoya qila olish ko'nikmasini rivojlantirish uchun matnni qisqartirish yoki uni kengaytira olish kabi mashqlardan foydalana olishi mumkun.Yozuvni rivojlantirishga

mo'ljallangan nutq mashqlari mazmun jixatidan bir biri bilan bog'langan gaplarni eslab aytish, yozish mashqlari bilan boshlanadi. Yozuvni shakillantirishda mashqlar, yozma ishlar, diktant, bayon, tasvirlash, xikoya qilish, insho yozish, xat yozish kabi turlaridan foydalaniladi. Yozuvni tekshirish va nazorat qilish. Fransuz tili o'qitish metodikasi yozuv malaka, ko'nikmalarni nazorat qilishga, tekshirishga yetarli axamyat berishni talab qiladi. Uni nazorat qilishning asosiy obyekti yozuv malaka va ko'nikmalari deb qaraladi. Bu narsa grafiko va imlo malakalari nazorat qilinmaydi degan manoni bildirmaydi. Yozuv va imlo malakalari qay darajada shakillanganligini tekshirishda tinglab diktant yozishdan foydalanish mumkun. Bunday diktantni vazifasi o'quvchilarning tovushli nutqini yozma nutqqa aylantirish malakasini tekshirishdan iborat. O'qituvchi yozilgan diktantni kelgusi darsgacha o'rganib chiqishi, o'quvchi, talabalar yo'l qo'ygan xatoni taxlil qilishi lozim.

Fikrni yozma bayon qilish ko'nikmalarini tekshirish paytida tasvirlash, hikoya qilish, insholar va shuningdek, chet ellik tengqurlarga xat yozish, tekshiruv topshirig'i sifatida qo'llanishi mumkun. Bunday topshirig'lar uyda yozib kelish uchun berilishi xam mumkun. Bunday topshirig'lar yozib chiqilgach, o'qituvchi ularni tekshirib bo'lgandan keyin ulardagi tipik xarakatlarni sinifda taxlil qilish katta axamyatga egadir. Umuman ingliz tilini va shu bilan yozuvni o'rgatishda o'quvchi talabalar daftarini muntazam ravishda tekshirib turish juda foydalidir.

Xozirgi zamon chet tillar o'qitish metodikasi o'quvchi, talabalar yozma nutqidagi o'z xatosini tushunib olgan va muayyan ishni xatosiz bajara olgan paytdagina xatolar talrorlanishini oldini olish mumkun, deb xisoblaydilar. Bazi chet el metodistlari o'quvchi talabalar ongida xatolar o'rnatib qolmasligi uchun ular xato qilmasligi va xatoni ko'rmasligi kerak degan nazaryaga asoslanib, o'quvchi talabalar yo'l qo'ygan xatolarni to'g'rilashni taklif qiladilar. Yozma ishlarni tekshirishda o'quvchilar o'z xatolarini aniq ko'rishlari va ularni ongli ravishda tuzatish uchun xatolarni tagiga chizib qo'yishi, daftar xoshiyasiga ularni qanday xatolar ekanligini ifodalovchi belgilar qo'yish tafsiya qilinadi. Xatolar ustida ishlash ularning xarakteriga bog'liqdir. Masalan, imlo va grafik xatiga yo'l qo'ygan o'quvchidan xato yozilgan so'zlarni bir necha bor yozish talab qilinadi. Gramatik va leksik xatolar ustida ishlashda o'quvchi, talabalarga bu xodisani gapda to'g'ri ishlatish tushuniladi. Xozirgi paytda fransuz tilida 5-6 siniflarda bitta mashq daftari tutish maqsadga muvofiqdir. U bir chiziqli oddiy 12 yoki 18 varoqli daftar bo'lishi, katak daftar bo'lmasligi talab qilinadi. 7-sinifdan boshlab 1 ta mashq daftaridan tashqari lug'at daftar tutish tafsiya qilinadi. 5-6siniflarda lug'at daftarining zaruriyati yo'q. Chunki o'rgatilayotgan so'zlar kam va xammasi mashqlarda uchraydi, og'zaki o'rgatiladi. 7- sinifdan boshlab esa passif leksika ko'payadi, ular xammasi yozma mashqlarda uchraydi. Mashq daftarining chap tomonidan xoshiya qoldiriladi. O'qituvchi xatolarni to'g'ri yozishni ko'rsatib yozib qo'yadi. Lug'at daftari xam bir chiziqli bo'lib, 2 qisimga bo'linib, fransuzcha so'z, tarjimasi yoziladi. Mumkun bo'lsa daftarini ko'p varog'ligidan tutilib uni 8-9 siniflarda ham ishlatish mumkun. O'quvchilar daftar ustiga soda qilib maktaf, sinf, ism, familiyani yozishlari maqul. Uni o'quvchi o'zi yoza olishi, o'qiy olishi oson bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Chet tili o'qitish metodikasi". Jamol Jalolov O'qtuvchi nashiryoti, 1996-yil.
2. "Ingliz tili o'qitish metodikasi" O'. Xoshimov. I. Yoqubov. "Sharq" 2003 yil
3. Z.B.Toshev "Nemis tili fonetikasi" Toshkent 2004
4. S.Saidaliyev "Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar" Namangan 2004
5. A.A.Mirollyubov va boshqalar "O'rta maktabda chet tillar o'qitish metodikasi" Toshkent-1974

6. N.Avazboyev "Xozirgi nemis tili fonetikasi. Nazariy kurs. Toshkent-1978
7. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
8. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
13. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
14. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънотинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
15. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
16. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4]* (2023).